


milliy tiklanish

№ 8 (1240) 2024-yil 8-mart, juma

Adabi - 5 036

www.mtgazeta.uz | fb.com/milliytiklanish.gazetasi | t.me/milliy_tiklanish_gazetasi



“
INSON QADRINI
ULUG'LASH AVVALO
AZIZU MUKARRAMA
AYOLLARNI
ULUG'LASHDAN
BOSHLANADI

2s



2024-yilning 16 - 18-mart kunlari umumxalq xayriya hashari o'tkaziladi

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishiga ko'ra, Respublikada "Navruz" umumxalq bayramini munosib nishonlash hamda muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish, mahallalar, aholi turar joylari, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar hamda bolalar maydonchalarini obodonlashtirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini davom ettirish, sog'lom turmush tarzi hamda sanitariya-gigiyenik madaniyatni targ'ib qilish, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 16 - 18-mart kunlari "Obod va fayzli mahalla - yurt ko'rk" shiori ostida umumxalq xayriya hashari o'tkaziladi.

Xayriya hasharini o'tkazish doirasida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

"Mahallamga 10 tup daraxt - mening tuhfam" shiori ostida barcha turar joy mavzolari va mahallalarda iqlim sharoitiga mos hamda sug'orish tizimini hisobga olgan holda daraxt ko'chatlari ekish; Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tuman (shahar) hokimliklari mahalliy byudjetlarining qo'shimcha manbalari (mahalliy byudjetlar daromadlarining choraklar yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismining 10 foizidan tashqari), homiylik xayriyalari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan mahalla fuqarolar yig'inlari orqali aholiga bepul ko'chat tarqatish va daraxt ekish ishlarini tashkil etish; aholi punktlarida qarovsiz qolgan daraxtlarni saqlash va parvarish qilish hamda bog'larni ko'kalamzorlashtirish, ushbu hududlarda daraxtlar ekish, saqlash va parvarish qilish ishlariga aholining band bo'lmagan qatlamini ixtiyoriylik asosida jalb qilish; ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, ayniqsa, ehtiyojmand, mehr-muruvvatga muhtoj, boquvchisiz qolgan keksa va nogironligi bo'lgan fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish;

Davomi 4-sahifada

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

ASR VABOSI
Undan yoshlarimiz qay darajada himoya qilingan

4s

«Milliy tiklanish» deputatlari bu masalada MAS'ULLARNING MAS'ULI

3s

CHO'RTKESAR DEPUTAT

Partiyaning Jizzax viloyati Kengashi raisi Dilshod Mirzaahmedov odatiy salomalikdan so'ng hazilomuz gap qotdi: - Zamira Jonuzoqovnani topolmagansiz shekilli? Uning fe'li shunaqa o'zi, tong saharlab ishga chiqib ketganidan keyin uni ushlab amrimahol. Partiyaning viloyat, tuman, shahar kengashlarida faoliyat yurituvchi 77 nafar deputat bir tomon bo'lsa, opaning o'zi bir tomonda turgandek bo'ladi. Boz ustiga u o'ta

cho'rtkesar, yuzing-ko'zing demay to'g'risini gapiraveradi. Ayniqsa, adolatsizlikka, ko'zbo'yamachilikka sira toqati yo'q. Shuning uchun u bilan nafaqat Do'stlik tumanidagi, hatto viloyatdagi rahbarlar ham o'ylab gaplashishadi. ...Har tugul o'sha kuni Dilshod Mirzaahmedovning ko'magida opa bilan uchrashdik.

Davomi 4-sahifada

QIMAZORLIKLAR
BOSHLAGAN BAYRAM
AFRIKADA
HAM SADO BERADI

Nihoyat qish bo'yi uyquda bo'lgan dov-daraxt novdolari kurtak chiqarib, quyosh nurlariga talpinayapti, tabiat shu tariqa yashil libos kiyishga shoshilayotir. Navro'z yaqinlashgani sari o'lkamizda bahoriy tadbirlar ham boshlanib ketdi.

5-sahifa

KATTA QALB EGASI



MAS'ULIYAT VA MAS'ULIYATSIZLIK CHEGARASI

Biz til haqida ko'p gapiramiz! Ammo uning rivojida shu tilda so'zlayotgan, shu tilda yozayotgan sizni bizning ham hissamiz borligini ko'pam anglayvermaymiz. Bugun radio va televideniya boshlovchilik qilayotgan shaxslarning nutqiy ko'nikmalari tilimiz qonuniyatlariga qanchalik mos?

6s

7-sahifa

44

YILGA KECHIKKAN HAQIQAT

Ilm olish, izlanishlar qilib yangiliklar yaratish, bilimlarini esa yoshlarga o'rgatishni niyat qilgan minglab jadedlar qatorida Bade' Abdulla ham bor edi.

YANGI O'ZBEKISTONDA BUTUN XALQIMIZ QATORI XOTIN-QIZLARIMIZ UCHUN HAM MUNOSIB SHAROITLARNI YARATIB BERISH — ENG MUHIM VAZIFAMIZ BO'LIB QOLADI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hayotimiz quvonchi, fayzu farishtasi bo'lgan muhtarama onaxonlar, hurmatli opa-singillar, dilbar qizlarim!

Bugun siz, azizlar bilan mana shunday tantanali anjumanda uchrashib, barchangizni, sizlarning timsolingizda butun mamlakatimiz ayollarini Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbdan qutlash men uchun ulkan sharaflar va saodatdir. Barcha-barchangizga samimiy mehriban va cheksiz hurmatimni izhor etishga ijorat bergaysiz. O'zlaringiz kabi go'zal bayramingiz muborak bo'lsin!

Muhtaram vatandoshlar!

Ushbu shukuhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siyosiga, mo'tabar ayol zotiga ta'zim qilamiz. Zero, inson qadrini ulug'lash avvalo azizu mukarrama ayollarimizni ulug'lashdan boshlanadi. Shu ma'noda, Mir Alisher Navoiy bobomizning, jannat bog'idan bahramandlik istar ekansan, avvalo, munis onani rozi aylagin, degan so'zlarini biz eng ezuq da'vat sifatida qabul qilamiz. Biz hayotimizning ma'no-mazmuni, butun borlig'imizni siz, qadrlar opa-singillarimizdan ayri holda tasavvur etolmaymiz. Sizlar biz uchun hamisha go'zallik va nazokat, mehr va sadoqat, qanoat va shukronalik timsoli bo'lib kelgansiz va doimo shunday bo'lib qolasiz. Mana shunday olijanob fazilatlaringiz bilan bizlarga hamma vaqt kuch-g'ayrat, hayotga, kelajakka ishonch bag'ishlab kelayotganingiz uchun siz, azizlarga har qancha tahsin va tasannolar aytisak, arziydi.

Hurmatli opa-singillar!

Yurtimizda mehnatkash, olijanob xalqimiz, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz uchun erkin, o'z va farovon hayot barpo etish — davlatimiz va jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilangan. Jumladan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda, avvalo, milliy quvonchimizni takomillashtirilib, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning tasdiq'ini birgina misol, ya'ni Saylov kodeksidagi deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafardan 2 nafari ayol kishi bo'lishi zarurligi mustahkamlab qo'yilganida yaqqol ko'rish mumkin.

Bugun ushbu muhtasham zalda hurmatli deputat va senator ayollarimizni ko'rib turganimdan xursandman. Mamlakatimizda qonunchilikni mustahkamlash, qabul qilinayotgan qonunlarimizning adolatli va ta'sirchan bo'lishida ularning ham albatta hissasi katta. Buning uchun xalq vakillari bo'lgan bu ayollarimizga chin qalbdan minnatdorlik bildiramiz. Davlati vaqtida xotin-qizlarning dazirlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani ayniqsa e'tiborlidir. Shu bilan birga, yuzlab oqila ayollar hayotimizning barcha sohalarida jonbozlik bilan faoliyat ko'rsatayotgani barchamizni quvontiradi.

Bu borada Gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi samarali ish olib borayotganini ta'kidlash lozim. Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. So'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda ishbiarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Birgina 2023-yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihalari 13 trillion so'mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so'm subsidiya ajratildi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi.

Eng asosiysi — 400 mingdan ortiq opa-singillarimiz ish bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, xotin-qizlarga ajratilgan 6 trillion so'mlik ipoteka kreditlari hisobidan 25 mingdan ziyod oilalar o'z uyiga ega bo'ldi. Bu borada 6 ming 200 nafar ayolga uy-joy sharoitini yaxshilash va kreditning boshlang'ich badalini to'lash uchun 200 milliard so'm subsidiya ajratilganini qayd etish lozim. Shu bilan birga, joylarda xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'tgan yilning o'zida "Ayollar haftasi" bo'yicha 1 trillion 234 milliard so'm hisobidan qariyb 994 ming nafar xotin-qizning muammosi hal etilgan bu fikrni tasdiqlaydi. Bu vazifalarni bajarishda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollarning ishtiroki kuchayib borayotgani ayniqsa muhimdir. Ular tomonidan "xonadonbay" o'rganish natijasida ijtimoiy yordamga muhtoj 690 mingdan ziyod oilaga manzilli yordam ko'rsatildi. 116 mingta notinch oilada muhit sog'lomlashtirilganini bugun alohida e'tirof etamiz.

Qadrlar do'stlar!

Mamlakatimizda bo'lg'usi onalar, kelajak tarbiyachilari bo'lmish qizlarimiz kamolotiga, ularning oliy ta'lim olishi, zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalar, xorijiy tillarni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda oliygohlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabning yarmidan ko'pi — e'tibor bering, yarmidan ko'pi, ya'ni 653 ming nafardan ziyodini qizlar tashkil etmoqda. Magistraturada o'qiyotgan yoshlarimiz orasida qizlarning ulushi yanada ko'p, ya'ni salkam 14 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu — jami magistrantlarning qariyb 60 foizi degani. Joriy o'quv yilida ehtiyojmand oilalarga mansub 1 ming 914 nafar xotin-qiz oliygohlarga qo'shimcha davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilindi. 181 ming 500 nafardan ortiq qizlarimiz uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning vakillari, yetim qolgan yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 2 mingdan ziyod talaba uchun 14 milliard 500 million so'm kontrakt puli mahalliy byudjetlar hisobidan qoplab berildi. So'nggi yillarda davlat oliygohlarining magistratura bo'limida o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullari byudjetdan to'lanmoqda. Eng muhimi, qizlarimiz o'rtasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Masalan, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olgan yoshlarning 47 foizi, ya'ni qariyb yarmini qizlar tashkil etgan.

Keyingi paytda yurtimizda ilm-fan va ta'lim, xususan, oliy ta'lim sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli xotin-qizlar bu yo'nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. Buning amaliy ifodasini so'nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayollarimiz fan doktori (DSc) va o'z sohalariga bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgani misolida ko'rish mumkin. Birgina 2023-yilning o'zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishgani barchamizni mamnun etadi.

Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olim ayollarimiz faoliyat ko'rsatmoqda. Oliygohlarda esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pidayotgan ayollarimizni intellektual salohiyati naqadar balandligidan, agar tegishli sharoit va imkoniyat yaratib bersak, ular har qanday yuksak marrani zabt etishga qodirlikidan dalolat beradi. Albatta, oila yumushlari, farzand tarbiyasi bilan birga, turli soha va tarmoqlarda fidokorona xizmat qilayotgan opa-singillarimizning mehnatini munosib qadrlash doimo davlatimiz e'tiborida bo'lib

kelmoqda. Mustaqillik yillarida 17 nafar hurmatli ayollarimiz "O'zbekiston Qahramoni" degan oliy unvonga sazovor bo'lgan bo'lsa, ularning 7 nafari fan, ta'lim va san'at sohasi vakillari ekanini alohida ta'kidlash lozim. 11 nafar ayol fan sohasidagi eng yuksak darajaga, ya'ni akademik unvonga sazovor bo'lgani, minglab xotin-qizlarimiz davlatimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlanib kelayotgani el-yurtimizning ularga nisbatan yuksak ehtiromi ifodasidir.

Aziz vatandoshlar!

Hammamizga ma'lumki, bugun dunyoda murakkab va og'ir vaziyat, iqtisodiy inqiroz hukm surmoqda. Tabiiyki, bu holat mamlakatimizga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda ijtimoiy sohalar uchun byudjetdan mablag' ajratish albatta oson bo'layotgani yo'q. Lekin, qanchalik qiyin bo'lmasin, biz qo'shimcha imkoniyat topib, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish, xotin-qizlarimizning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun sharoit yaratmoqdami va bu ishlarimiz albatta davom etadi. Chunki ayollarning, xususan, qiz bolaning o'qib, oliy ma'lumoti bo'lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Opa-singillarimiz salomatligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xalqimiz genofondini mustahkamlash inson qadrini ulug'lashning o'zak masalasidir. Shu maqsadda 2023-yili 6 million 500 ming nafardan ziyod ayollar



oilaviy tadbirkorlik uchun kreditlarning kamida 40 foizi ayollar taklif etgan loyihalarga yo'naltiriladi. Shu maqsadda har bir hududda xotin-qizlar uchun hunarmandchilik, tadbirkorlik markazlari va klasterlari tashkil etiladi. Ushbu maskanlarda 205 ming nafar opa-singillarimiz mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga tayyorlanadi hamda tadbirkorlik asoslariga o'rgatiladi. Shuningdek, "Yoshlar haftasi"ga kiritilgan 8 ming nafar xotin-qizga o'z biznesini boshlashi va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun subsidiya, 10 ming nafariga esa imtiyozli kreditlar ajratiladi. 50 ming nafar yosh ayollar uchun malakali mutaxassislar ishtirokida "Biznes marafon" loyihasi tashkil etiladi. Ushbu loyiha doirasida yuzlab qobiliyatli qizlarimizga o'z biznesini yo'lga qo'yish bo'yicha

qolamiz. Opa-singillarimizning og'irini yengil qilish, muammolariga yechim topish, kerak bo'lsa, oilaviy masalalarda ayollarimizning yaqin sirdoshiga aylanish ular uchun birinchi darajali vazifa bo'lishi lozim. Dunyoda o'xshashi bo'lmagan bunday tizimni joriy etishdan maqsad ham xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini quyi bo'lg'undan boshlab samarali himoya qilish ekanini siz, azizlar albatta yaxshi tushunasiz. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish yo'lida tashladan yangi bir amaliy qadam, desak to'g'ri bo'ladi.

Aziz yurtdoshlar!

Vatanni sevish, unga sadoqat bilan xizmat qilish, el-yurt uchun munosib farzandlar tarbiyalash — bu dunyodagi eng ulug' va sharafli ishdur. Mehribon va oqila, jonkuyar ayollarimiz bu borada hamisha fidoyilik ko'rsatib kelmoqdalar. Ma'lumki, har yili aholimiz soni qariyb 900 ming nafarga ko'paymoqda. Joriy o'quv yilida 733 ming nafar farzandlarimiz birinchi sinfga qadam qo'ydi. Ertaga hayotimizga qudratli to'lqin bo'lib kirib keladigan ana shunday navqiron avlodimiz timsolida biz Yangi O'zbekiston buniyodkorlarini ko'ramiz. Shu bois, o'g'il-qizlarimizni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni milliy g'urur, Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida voyaga yetkazish barchamizning asosiy burchimizga aylanishi zarur. Bugungi tahlikali zamonda jahon miqosida kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik, hayotga yengil-yelpi, iste'molchilik kayfiyati bilan qarash kabi xatarlardan yoshlarimizni himoya qilish o'ta dolzarb masalaga aylanmoqda. Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha ayollarga murojaat qilmoqchiman.

Aziz opa-singillar, oilada farzand tarbiyasiga e'tiborni kuchaytiraylik, bog'cha, maktab va oliygohlarga kirib boraylik. O'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, farzand va nabiralarimizning o'qishi, davomati masalasi, axloq-odobi bilan qiziqaylik. Bolalarimizni bilim va aqli, oqni qoradan ajrata oladigan, el-yurtimizga sodiq, hayoli va iboli, mustahkam irodali insonlar etib tarbiyalash uchun barchamiz birgalikda harakat qilaylik.

Biz ma'naviy tarbiya ishlarini endi mutlaqo yangicha usulda olib borishimiz kerak. "Ezgulik — shiorimiz, ma'rifat — qurolimiz" degan g'oya asosida bu jarayonni avvalo oiladan, mahalladan boshlashimiz lozim. Zotan, hadisi sharifda aytilganidek, "Ota-ona o'z farzandiga yaxshi tarbiyadan boshqa meros qoldirolmaydi". Muhtarama opa-singillarimiz, duogo'y onaxonlarimizning mas'uliyati — aynan ana shu masalalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Chindan ham, jondan aziz bolalarimiz hamma havas birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz muammolarini hal etish bo'yicha yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Ayniqsa, "Mahalla yetiligi" tarkibidagi xotin-qizlar faollaridan biz katta natijalarni kutib

Qadrlar do'stlar!

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha to'plangan milliy tajriba xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. Jahon bankingning kuni kecha e'lon qilingan indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etildi. "Ayollar, biznes va qonun" deb nomlangan ushbu yillik hisobotda dunyoning 190 ta davlatidagi holat 10 ta ko'rsatkich bo'yicha baholab borildi. Yangi indeksda mamlakatimizda mehnat munosabatlari va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash sohasida amalga oshirilgan islohotlar muvaffaqiyatli deb topilgan. O'zbekiston bu borada yaxshi natijaga erishgani e'tirof etilgan.

O'tgan yili Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilgan nufuzli xalqaro xotin-qizlar forumlarida ham mustaqil tahlilchi va ekspertlar tomonidan ayni shu jihatlariga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Bularning barchasi albatta biz birgalikda qo'lga kiritgan katta yutuq bo'lib, bu ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz lozim. Joriy yilda mamlakatimiz yana bir yirik anjuman — Osiyo xotin-qizlar forumiga mezbonlik qiladi. Mazkur anjuman "Birlashgan Millatlar Tashkiloti — Xotin-qizlar" tuzilmasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Bu forum gender siyosati, xotin-qizlarning davlat va jamiyat dastlabki yutuqlari uchun buyuk ishtirokini yanada kengaytirish bo'yicha samarali muloqot maydoni bo'ladi, deb ishonamiz. Fursatdan foydalanib, bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan xorijiy davlatlarning hurmatli elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillarini ham samimiy qutlaymiz. Ularning mamlakatlari va xalqlariga chin dildan tinchlik, ravnaq va farovonlik tilaymiz.

Hurmatli do'stlar!

Xabaringiz bor, har yili 8-mart ayyomida turli sohalardagi dastlabki yutuqlari uchun buyuk o'zbek shoirasi — Zulfiyaxonim nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan iste'dodli qizlarimizni muborakbod etamiz. Bugun bayram tadbirimiz ana shu qizlarimiz, ularning ota-onalari, ustozlari uchun, o'ylaymanki, unutilmas tarixiy voqea bo'lib qoladi. Siz, aziz farzandlarimizni yuksak mukofot bilan o'z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy tabriklayman. Bunday ulkan e'tirofni kelajakda katta-katta yutuqlar bilan albatta oqlaysizlar, deb ishonaman.

Ayni vaqtda bugungi bayram arafasida mehnat va jamoatchilik faoliyatida muhim natijalarga erishgan, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelayotgan hurmatli ayollarimizdan katta bir guruhi davlatimizning yuksak orden va medallari bilan taqdirlandilar. Barchamiz ularni chin qalbdan qutlab, kelgusi ishlariga yangi muvaffaqiyat va omadlar tilaymiz.

Muhtarama opa-singillar! Siz, azizlarni bugungi bahor va nafosat bayrami bilan yana bir bor tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, xonadoningizga tinchlik-omonlik, fayzu baraka tilayman. Har biringizga hamisha oilangiz, farzand nabiralaringiz, el-yurtimiz ardog'ida bo'lish nasib etsin! Katta rahmat sizlarga!

8 - Mart Nalqaro xotin-qizlar kuni



Alisher QODIROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikeri o'rinbosari, «Milliy tiklanish»
demokratik partiyasi Markaziy
kengashi raisi

Ozodbek NAZARBEKOV,
Madaniyat vaziri

Ayol eng avvalo ona, sevimli yor, oila farishtasi, xonadonlarning fayzi, qolaversa, faol jamoatchi, o'z sohasining bilimdoni, yetuk, fozila ustoz va murabbiy. Uning ta'rifiga ne-ne do'stonlar bitilmagan, kuy-qo'shig'u, navolar yaratilmagan? Men bu bitiklarning bittasini keltirmoqchiman: «Onalarning oyog'i ostidadir ravzai jannati jimon bog'i, Ravza bog'i visolin istar ersang, bo'l onaning oyog'i tufrog'i...» Shunday tabarruk, muhtarama onalar, ayollarimiz doimo biz bilan birga hayotimizni nurlarga to'ldirib yashayotganlaridan baxtiyormiz. Quog'o'y onaxonlarimiz, mehribon opa-singillarimiz, oqila bekalarimiz, qolaversa, har jabhada faol ayollarimizga bugungi bayramlari qutlug' bo'lsin, doimo sog'-omon bo'lishsin, bor bo'lishsin deymiz!



Ayollarni e'tirof etib, ularga ehtirom ko'rsatmoqchi bo'lsak, barcha ta'rifu ta'riflar ham, she'ru, ash'orlar ham kamlik qiladi. Aslida, faqat 8-martda emas, yil, o'n ikki oy - 365 kun xotin-qizlarga ehtirom ko'rsatishimiz kerak. Zero, mehnatsevar, fidoyi va zahmatkash opa-singillarimizni har qancha qardlasak oz. Ular - hayotimiz ko'rki, jamiyatimiz tayanchi va ishonchi, sog'lom va barkamol avlod tarbiyachilaridir. Sarvari koinot Odam Atoni yaratdi. Agar uning qovurg'asidan Momo Havoni yaratmaganda, balki bugun olam o'ta rangsiz, hayot esa mazmunsiz bo'lardi. Buni qarangi, buyuk alloma Ibn Sino ayollarni «kasallikka» o'xshatgan bo'lsa, xitoylik faylasuf Konfutsiy ularni

«zahar»ga qiyoslagan. Bu, albatta, majoziy ma'nodagi qiyoslar. Ammo tan olishimiz kerak, hayotda eng yuqori cho'qqilarni egallagan har qanday erkak ortida albatta, kuchli AYOL va uning zahmatli mehnatlari bo'ladi. Siyosat olamida ham, boshqa sohalarida ham xotin-qizlarimiz biz bilan yelkama-yelka mehnat qilib, jamiyat rivoji uchun ulkan hissa qo'shmoqdalar. Ish bilan band bo'lmagan ayollar esa vatani uchun munosib avlod bo'la oladigan farzandlarni ulg'aytirishyapti. Shu ma'noda, biz ayollarni kelajak davomchilari sifatida doimo qo'llab-quvvatlasak, ulug'lar aytganidek: «Ayolini e'zozlagan yurtning poydevori mustahkam bo'ladi».

Sherzodxon QUDRATXO'JA,
O'zJOKU rektori,
siyosatshunos olim,
jurnalist



Inson hayoti va jamiyat rivojida muqaddas Ona zoti, munis ayollarimizning o'rnini oddiy so'zlar bilan ifoda etish qiyin vazifa. Mana shunday qutlug' ayyom kunlarida siz, azizlar sha'niga madhiyalar aytish uchun odam shoir bo'lib tug'ilmaganiga afsuslanib qoladi. Bu yorug' dunyoni quyoshsiz, yeru osmonsiz tasavvur etib bo'lmaganidek, hayotimizni ham mo'tabar onalarimiz, mehribon ayollarsiz tasavvur etolmaymiz. Ayollar go'zallik yaratish qobiliyati bilan ham doim biz - erkaklarni ilhomlantirib keladilar. Ularning so'zlari va chiroyi tungi osmondagi yorqin yulduzlardek porlab, yo'limizni yoritadi. Mamlakatimiz ayollariga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlariga fayzu baraka tilayman. Bayramingiz muborak, aziz ayollar!

Kamoliddin RABBIMOV,
siyosatchi



Ayol deganda, har qanday erkak uch avlod timsolidagi eng yaqin insonlarini tasavvur qiladi: onasi, oilasi va qizi. Erkaklar tarixan har doim onalari bilan hamdard, hamnafas bo'lishgan, rafiqalarini nazorat qilishga intilishgan va qizlarining taqdirini o'ylashgan. Shuning uchun ham, xotin-qizlarning haq-huquqlari, erki va qadr-qimmati - bu eng avvalo, onalar va qizlarning haq-huquqlari va qadr-qimmati masalasidir. Bugungi O'zbekiston zamonaviy jamiyat, huquqiy demokratik davlat sari bormoqda. Bundan keyin raqobatdoshlik sari yurishga mahkum bo'lgan jamiyatimizda ayollarimiz nafaqat iffatli, iboli, balki ilm-ma'rifatli va yuqori malakali bo'lishlari ham zarur. 8-mart sanasi bu - xotin-qizlarni tabriklash asnosida, ularning oiladagi, jamiyat va davlatdagi mavqeyi borasida qayg'urish uchun ham bir fursatdir. Oqila ayollarimiz, go'zal qizlarimizga yasharish fasli, go'zallik bayrami, bugungi sana muborak bo'lsin!

Beruniy ALIMOV,
«Yangi media ta'lim markazi»
direktori,
filologiya fanlari
doktori

O'zbek qizlari va ayollarini farishtaga o'xshataman. Ishoning, dunyoda ularning tengi yo'q. Bugun ular nafaqat uy bekasi, kelin yoki ona, balki taniqli olim, deputat, tadbirkor, uchuvchi, jurnalist, shifokor va boshqa muhim sohalarida o'zlarining kuchli mutaxassis ekanliklarini namoyon etmoqdalar. Tan olishimiz kerak, ular borki, mamlakat taraqqiy etadi. Ular borki, oilamiz tinch, turmushimiz go'zal va osoyishta. Shu sababdan ham qizlarimiz va ayollarimizga faqat bayramda emas, balki har kuni, bir umr ehtirom, e'tibor hamda mehr ko'rsatishimiz, e'zozlashimiz kerak. Ularning yuzu ko'zlaridagi tabassumni ko'rish har doim bizga nasib etaversin! Bayram muborak bo'lsin, muhtarama xotin-qizlar!



Feruz XO'JAYEVA tayyorladi.

✓ Tahlil

«Milliy tiklanish» deputatlari bu masalada mas'ullarning mas'uli



Jamshid QOSIMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

S o'ngi yillarda turizm haqiqatan ham iqtisodiyotning muhim drayveriga aylandi. Ayniqsa, sohaning aholi bandligini ta'minlashdagi roli tobora ortib bormoqda. Bunga o'tgan yili ushbu sohada 430 million kishi ish bilan ta'minlangani, bu dunyoda yaratilgan jami ish o'rinlarining to'qqizdan bir qismini tashkil etgani ham misol bo'lishi mumkin.



Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilda global turizm faolligi pandemiyadan oldingi darajaga yetay deb qoldi. Qayd etilishicha, o'tgan yili 1,3 milliard kishi xorijga sayohatga chiqqan. Ayrim manbalarda 2033-yilga borib jahon turizm sanoatining hajmi 2019-yilga nisbatan 50 foizga o'sib, 15,5 trillion dollarni tashkil etishi aytilmoqda.

Buyuk ipak yo'li markazida joylashgan, tarixiy va zamonaviy dunyoning o'ziga xos uyg'unligiga ega bo'lgan O'zbekistonning turizm imkoniyatlarini ham ortiqcha ta'riflash shart emas. Buning isbotini yaqinda Samarqandda Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi bo'lib o'tganidan ham bilish mumkin.

Zero, bugun yurtimizda turizm imijini yaxshilash, soha rivoji uchun qulayliklar yaratish ustuvor masalaga aylandi. Salkam 100 ta mamlakat fuqarolariga O'zbekistonga vizasiz kirish huquqi berildi. Yana 55 ta davlat sayyohlari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi.

Shuningdek, mehmonxonalar, sayohat yo'nalishlari ko'payib bormoqda. Joriy yilning o'zida 15 mingta yangi mehmon o'ri tashkil etilib, ular soni qariyb 140 mingtaga yetdi. 540 ta dam olish maskani barpo etilib, 70 ta turizm marshruti ochildi. Eng asosiysi, oltita xususiy aviakompaniya ish boshladi.

Ta'kidlash lozim, soha rivojiga qaratilgan ishlar imkoniyatlarimiz darajasida emas. «O'zbekiston - 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish borasida ko'plab vazifalar belgilangan.

bu shubhasiz, mamlakatimizda ushbu soha rivojida yangi bosqichni boshlab beradi.

Agar 2023-yili 6,6 million nafar xorijlik turist O'zbekistonga kelgan bo'lsa, davlat dasturida joriy yil bu raqamni 10,5 million nafarga, xizmatlar eksportini 2,5 milliard dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini esa yiliga 200 million dollarga yetkazish belgilab qo'yildi.

Buning uchun yangi turizm yo'nalishlari ochilib, hatto transport va avtomagistral yo'llar bo'ylab ham turizm infratuzilmasi obyektlari tashkil etiladi. Yana bir harakat: xorijiy davlatlarda O'zbekistonning turizm salohiyati keng targ'ib etiladi.

Farmonda ichki sayyohlar sonini 21 millionga, ziyoratchi turistlar sonini esa 1,5 mln. nafarga yetkazish bo'yicha ham vazifalar belgilangan bo'lib, buning uchun ichki turizm bo'yicha nomavsumiy oylarda chegirmalar berish ko'zda tutildi. Shuningdek, mamlakatda yirik turizm klasterlari faoliyati yo'lga qo'yilib, hududlarda 600 ta yangi mehmonxona, mehmon uylari va hostellar ochildi.

Ayniqsa, soha rivojiga xususiy investitsiyani jalb etish yanada jadallashishini aytish joiz. Farg'ona, Andijon va Namanganning tuman va shaharlarini bog'lovchi «Oltin vodi sayyohlik halqasi», Xorazm va Qorqalpog'iston bo'ylab esa «Qal'alar halqasi» kabi yangi turistik yo'nalishlar ham tashkil etiladi.

Albatta, endigi vazifa belgilangan chora-tadbirlarning qog'ozda emas, amalda ijrosini ta'minlashdir. Shu ma'noda, turizm rivojini o'zining Saylovoldi dasturida ustuvor vazifa sifatida belgilab olgan «Milliy tiklanish»dan saylangan biz - deputatlarga dastur ijrosi uchun mas'ullarning mas'uli ekanimizni his etgan holda ish olib borishimiz kerak.

✓ Kuting!

Feruz MUHAMMEDJANOVA:

MO'G'ULISTONDA
OTGAN ANJUMANDA
O'ZBEKISTON NAFAQAT
BOSHQA DAVLATLARNING
TAJRIBASINI
O'RGANADIGAN,
BALKI O'RGATADIGAN
MAMLAKATGA
AYLANGANINING GUVOHI
BO'LDIK...

Kelgusi sonlarda



Zumrad BEKATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yili dunyo bo'yicha 275 million kishi psixotrop moddalar qabul qilgan. 2030-yilga borib esa bu ko'rsatkichning 11 foizga ko'payishi taxmin qilinmoqda. Qayd etilishicha, ayni paytda 36 million kishi giyohvand moddalar qabul qilmoqda, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning qariyb 60 foizi ham giyohvandlar hissasiga to'g'ri kelyapti. Ushbu holatlar ijtimoiy xavfligi bilan ham alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

2023-yilda giyohvandlik vositalarini yoki ularning analoglarini yoxud psixotrop moddalarni oz miqdorda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish bilan bog'liq 1027 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangan, bu 2022-yilga (863 holat) nisbatan 164 taga ko'pdir.

(Boshlanishi 1-betda)

ASR VABOSI

Undan yoshlarimiz
qay darajada
himoya qilingan



Ma'lumki, giyohvandlikka qaramlik aholining mehnatga qobiliyatli qismini zararlashi, bunday fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga yo'naltiriladigan mablag'larning ko'pligi va sarf-xarajatlarning kattaligi, demografik holatga ta'sir qilishi bilan birinchidan, iqtisodiy taraqqiyotga, ikkinchidan, aholining sog'lom, bexavotir turmush kechirishiga xavf tug'diryapti. Ta'kidlash joiz, mamlakatimizda aholi orasida psixotrop va giyohvand moddalarga qaramlikning profilaktikasi va undan davolanish samaradorligini oshirish hamda bunday moddalarning noqonuniy aylanishining oldini olish bo'yicha mustahkam huquqiy asos yaratilgan. «Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida»gi, «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi qonunlar shular jumlasidandir. Davlat bo'xona qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, bo'xonachilarimiz tomonidan 2023-yil hamda joriy yilning o'tgan davrida 596 ta qonunbuzilish holatlari aniqlangan bo'lib, ularning umumiy og'irligi salkam 9,5 tonna giyohvandlik vositalarining noqonuniy olib o'tilishi va tarqalishiga chek qo'yilgan. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilda giyohvandlik vositalarini yoki ularning analoglarini yoxud psixotrop moddalarni oz miqdorda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish bilan bog'liq 1027 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangan, bu 2022-yilga (863 holat) nisbatan 164 taga ko'pdir. Yana bir raqam: 2023-yili

giyohvand moddalar iste'mol qiluvchi 101 nafar, psixotrop dorilarni iste'mol qiluvchi 4 nafar fuqaro vafot etgan. Qisqasi, ushbu illat bizning yoshlarga ham xavf solyapti. Shuning uchun ham maktablarni giyohvandlik vositalaridan asrash uchun profilaktik tadbirlar kuchaytirilmoqda. Ta'lim tizimidagi yoshlarga giyohvandlik vositalarining salbiy oqibatlarini va xatarlarini ochiq-oydin tushuntirib beruvchi o'quv dasturlari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, maktablarda muntazam ravishda tasodifiy tanlov asosida tekshiruvlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Ushbu muammo o'ta jiddiy bo'lgani sababli huquqni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, ta'lim hamda nodavlat tashkilotlari bu boradagi sa'y-harakatlarini birlashtirgan holda ishlamoqdalar. Ma'lumki, giyohvand shaxsning farzandi tibbiy o'rganishlarga ko'ra, jismoniy yoki aqliy nuqson bilan tug'iladi. Bu esa nafaqat oila, balki jamiyat uchun ham tashvishlanarli holatdir. Shunday ekan, bugungi dorilomon kunlarda sog'lom avlodni giyohvandlik balosidan asrash har birimizning vazifamizdir. Eng muhimi, bu masalada befarq bo'lmasligimiz lozim. Profilaktik tadbirlar ko'lamini va samaradorligini yanada kuchaytirishimiz zarur. Chunki bu xavf ma'lum muddatda yo'qolib ketmaydi. Aksincha, o'z domiga yangi «o'ljalarni» tortishda davom etadi. Demak, bunga qarshi barcha tashkilotlar, ta'lim muassasalari, ota-onalar qat'iy kurashishlari, farzandlari salomatligi va kamoloti uchun doimo hushyor bo'lishlari kerak.

2024-YILNING 16-18-MART KUNLARI UMUMXALQ XAYRIYA HASHARI O'TKAZILADI

mahallalar, aholi punktlari, ko'p qavatli turar joylar va hovllilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar hamda bolalar maydonchalarini tartibga keltirish; obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishtirokchilarini zarur texnika vositalari va anjomlar bilan ta'minlash; joylarda obodonlashtirish ishlarini o'tkazish jarayonida to'plangan chiqindilar mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan alohida belgilangan joylarga olib chiqilishini ta'minlash. Farmoyishda avtomobil yo'llari, harakatlanish tig'iz bo'lgan ko'chalar, suv obyektlari, qirg'oqbo'yi hududlar va zonalar, qurilish maydonlari, bino va inshootlar tomlari, xavfli ishlab chiqarish obyektlari, shuningdek, insonlarning hayoti yoki sog'ligiga xavf tug'ilishi mumkin bo'lgan boshqa joylarda ixtiyoriy tashabbus bilan tadbirlar va boshqa ishlar amalga oshirish mumkin emasligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

O'zA

(Boshlanishi 1-sahifada)

CHO'RTKESAR DEPUTAT

yoxud «gap»ga kirmay, «yetov»ga yurmaydigan «xalq xizmatkori» haqida

Qahramonimiz – Zamira Isroilova 1957-yili Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi Alamlı qishlog'ida tug'ilgan. 1975-yilda Sirdaryo davlat pedagogika oliygohining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirib, 1980-yilda bitirdi. So'ngra yo'llanma bilan qo'riq tuman – Arnasoyda o'qituvchilik qilgan. Shu tariqa yosh pedagog qator yillar Mirzacho'l, Do'stlik tumanlaridagi maktablarda bolalarga saboq berdi. Ha, darvoqe, u cho'lda ish boshlagan kezlarda kasbi filolog bo'lgan Usmonjon bilan tanishib, turmush qurishdi. Shu tariqa yillar o'tdi. Yosh oila esa taqdir ekan, shu yerlarda qolib ketdi. Bu orada qo'riq voha nafaqat ularning jismini, balki ruhini ham obdon sinovdan o'tkazdi, tobladi.

Yillar osha birin-ketin besh farzand dunyoga keldi.

2009-yilda Z.Isroilova Do'stlik tuman Xalq ta'limi bo'limi mudirligiga tayinlandi. Ushbu vazifadagi besh yillik faoliyati mobaynida tumanda xalq ta'limi tizimida salmoqli natijalarga erishildi. Ayniqsa, qattiqqo'l rahbarning sa'y-harakatlari bilan mavjud 20 ta maktabning moddiy-texnika bazasi yaxshilandi.

2017-yilda uni tumandagi Alisher Navoiy MFYga raislikka saylashdi. O'tgan besh yilda u bu yerda ham o'zini ko'rsata oldi. Ko'p o'tmay besh ming aholisi bo'lgan hududdagi muammolarga sekin-asta barham berila boshlandi. Ko'chalarga shag'al va asfalt yotqizildi, hududga tabiiy gaz keltirildi, ta'mirga muhtoj ichimlik suvi tarmog'i yangilanib, elektr ta'minotidagi uzilishlar ham ancha kamaydi.

Qahramonimiz tashabbusi bilan 20 yildan buyon qaqrab yotgan yerlarga oqar suv keltirilgach, aholining ishsiz qatlami tomorqa bilan shug'ullana boshladi. Xullas, rais katta-kichikning qo'liga ketmon berdi. Umumharakatning ikkinchi yiliyoq odamlar daromad ola boshlashdi. Qo'l ham, cho'ntak ham salmoqli, cho'g'i baland miqdorda pul ko'rdi. Bu orada hududda issiqxonalar barpo etilib, mirishkorlar bir yilda uch martalab hosil yig'ishtira boshlashdi.

Shu tariqa MFYda «Temir daftar», «Ayollar daftar», «Yoshlar daftar»ni yuritishga hech qanday hojat qolmadi. Hudud aholisi ishsizlik balosidan butkul qutuldi.

O'zing qishloqda yashasang, binoyidek tomorqang bo'lsa, shahar bozorida kartoshka-piyoz tashib yurishga uyalmaysanmi, or-nomus degan narsa bormi o'zi senda, aslida bularni bozorga o'zing olib borishning kerak. Shu yo'l bilan ro'zg'oringni butlaysan. Opaning bundayin «o'tkir tig'li» dashnomiga ro'baro' bo'lib qolmaslik uchun o'sha yillarda hududdagi «eng mashhur ishyoqmaslar» ham qo'liga ketmon olishga majbur bo'lgandilar...

Mana bugun o'sha paytdagi achchiqina ta'nalar o'zining shirin mevalarini berib, Alisher Navoiy mahalla fuqarolar yig'ini Do'stlik tumanidagi 12 ta MFY orasida eng ilg'or, eng dongdor, asosiy iqtisodiy baquv vat mahallaga aylandi. «Tomorqachi» Z.Isroilovani dong'i esa butun viloyatga taraldi.

2022-yilda qahramonimiz «Oqila ayollar harakati» tuman bo'limiga rahbar etib tayinlangach, MFY

raisligidan bo'shshaga ariza berdi. Ammo ming bitta sabab va uzrlar xalq tomonidan qabul qilinmadi. Alaloqibat shu yilning o'zida uni aynan shu MFYdagi Sharof Rashidov nomli I-saylov okrugidan tuman kengashi deputatligiga saylashdi. Qahramonimizning faolligi, tashabbuskorligi, oila farovonligi hamda xotin-qizlarning jamiyatdagi ishtirokini oshirishdagi hissiyasi esa yuksak qadrlanib, 2018-yilda «Mahalla iftixori», 2022-yilda «Mehnat faxriysi», joriy yilda esa «Mo'tabar ayol» ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi.

Deputat Zamira Isroilovani hayot tarzi-yu, faoliyatiga bir qur nazar tashlasangiz yuqoridagi dalil va raqamlarga ko'zingiz tushadi, albatta.

MA'LUM BO'LISHICHA, HOZIR RESPUBLIKAMIZDA UCH MING NAFARDAN ZIYOD ONA BOLALARI UCHUN ALIMENT TO'LAYOTGAN EKAN. BU ACHCHIQ, BIROQ OCHIQ RAQAMLAR ODAMNI HAYRATGA SOLADI. E'TIBOR BERING, ONA O'Z FARZANDLARINI MUSH TIPAR, KEKSA QAYNOTA-YU, QAYNONASIGA YOXUD ERIGA TASHLAB KETGAN...


Jahongir Ernarzov opaning asl shogirdlaridan biri. U suhbatimiz chog'ida qiziq bir gapni aytib qoldi:

– Bilasizmi, har gal xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida kotiblik vazifasini bajarishimga to'g'ri keladi. Buni tumandagi barcha idora, korxonalar, tashkilot rahbarlari yaxshi bilishadi. Sessiya kuni yaqinlashgani sayin qo'limdagi telefon tinmay jiringlay boshlaydi. Aniqrog'i, rahbarlar qo'ng'iroq qilishib, faqat bitta savol berishadi: deputat Zamira Isroilova so'zga chiqmaydimi, agar chiqa unga qancha vaqt beriladi?

Ularga ustozning so'zga chiqishini aytam bas, go'shakning u tomonidan bo'g'iq ovozi eshitiladi...

Isroilova esa o'ta cho'rtkesar, ishda o'zibo'larchilikka, manmanlikka berilgan, «janob»larni katta yig'inlarda, sessiyalarda changini qiyarib shunaa «do'pposlaydi»ki, o'sha rahbar boshqa bunaqa qilmaslikka ont ichib yuborganini o'ziyam bilmay qoladi!

Opa bilan suhbatlasharkanman, u og'ir tin olib qo'ydida, so'z boshladi: – Oilaviy ajrimlarning ko'payib borayotgani yomon bo'lyapti. Birgina 2023-yili yurtimizda 256 mingta nikoh qayd etilgani holda 48 mingta oilaviy ajrim ham yuz beribdi. To'g'ri, biz targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boryapmiz. Biroq kutilgan samaraga erisha olmayapmiz. Qozoq birodarlarimizning «Men ne deyman, qo'bizim ne deydi» degan



Jahonning bir maqolasini o'qidimu, halovatim butkul yo'qoldi, ayol sifatida o'zimiz qo'yarga joy topilmay qoldim.

Ma'lum bo'lishicha, hozir respublikamizda uch ming nafardan ziyod ona bolalari uchun aliment to'layotgan ekan. Bu achchiq, biroq ochiq raqamlar odamni hayratga soladi. E'tibor bering, ona o'z farzandlarini mush tipar, keksa qaynota-yu, qaynonasiga yoxud eriga tashlab ketgan...

To'g'ri, bunga arziqli sabablar ham bordir. Lekin buni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Ochig'i, bu biz uchun isnoddir.

Yana savollar tug'ilaveradi... Biz nega bu darajaga yetib keldik? Buning bosh aybdori kim? Surishtiruvlar natijasida ayon bo'ladi, bugun mutolaadan ancha yiroqlashib, olomonlashayotgan odamlarning kaltabinligi sabab

Yana bir gap: yaqinda «Milliy tiklanish» gazetasi Mehri



shu holdamiz. Aynan kitobdan yuz o'g'irganimiz uchun ham ayoliga bir buyumdek, bolasiga «ortiqcha barmoq»dek qarayotgan erkak, oila, bola boqib o'tirishni «umrning zavoli» deb biluvchi ayollar ko'paydi. Suhbatdoshimiz ham ayni og'riqli mavzuga oid savollar qiynayotganini aytar ekan, «bunga cheidan qarab tursak, bu illat ildiz o'taveradi, nimadir qilish kerak» degandi.

Chindan ham oila bilan bog'liq qadriyatlarimiz kundan-kunga nurab borayotgani bir-ikki mutasaddi yoki mahallani emas, butun jamiyatni jiddiy tashvishga solishi kerak bo'lgan muammo. Bunga panja ortidan qarashimiz esa bu borada halokatli intihoga ko'nganimiz demakdir...

Abdug'affor OMONBOYEV, «Milliy tiklanish» muxbiri

GENDER TENGLIK

sari

BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida "Hamma odamlar o'z qadri-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'ilishlari, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak"ligi yozib qo'yilgan. Aynan mazkur deklaratsiya qabul qilingan vaqtdan boshlab gender tengligi huquqi jahon miqosida tan olindi. Gender ko'rsatkichlarini hujjatlashtirib boruvchi "Gender Data Compass" xalqaro tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston 183 ta davlat orasida 56-o'rinni egallagan.

Ma'lumki, ko'plab genderni o'z ichida o'zaro taqqoslashda gender – davlat va tengsizlik o'rtasidagi ijtimoiy kategoriya sifatida tushuniladi. Avvallari gender tengsizlik munosabatlari deyilganda, erkaklarning ijtimoiy guruh sifatida ayollar ustidan hukmronligi tushunilgan bo'lsa, endilikda, bu tushunchaga siyosiy tushuncha deb qaralmoqda. Bunga ko'ra, jamiyatdagi mavjud gender notengligi ijtimoiy va siyosiy jihatdan namunaviy gender tenglikka olib chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida esa "gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati", deb yozib qo'yilgan.



Tan olaylik: keyingi yillarda O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan xotin-qizlar erkinligi va qonuniy huquq hamda manfaatlarini himoya qilish, ularning davlat va jamiyat hayotida o'z o'rinlarini topishlarini ta'minlash yuzasidan muhim qonun va qarorlar qabul qilindi.

Jumladan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunga asosan xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda bunday holatlarning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir chora-tadbirlar tizimli tarzda amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, 2021-yilda qabul qilingan "2030-yilga qadar O'zbekiston respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi"da inson omili uchun birlamchi bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalar qamrab olindi. Bugun mazkur Strategiya asosida 2030-yilga qadar O'zbekistonda tashqi va ichki migratsiyaning gender jihatlarini o'rganish, xotin-qizlarning huquqlari va mehnat migrantlarini himoya qilish mexanizmlarini yo'lga qo'yish, xotin-qizlar faolligini oshirish va bandlegini

ta'minlash, shu bilan birga davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash kabi muhim vazifalar amalga oshirilyapti. Shuningdek, Strategiyaga ko'ra, siyosiy partiyalarning rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlar ulushini 30 foizdan 50 foizga, boshqaruv lavozimlarida ishlovchi xotin-qizlar ulushini 26 foizdan 30 foizga, sudyalalar orasida esa 12 foizdan 30 foizga oshirish rejalashtirilgan.

Shuni ham alohida qayd etish joizki, bunday talablar islomda ham alohida belgilangan. Xususan, oiladagi ota zimmasida bo'lgan qizning ta'lim-tarbiyasi, uning barcha ehtiyojlari qiz turmushiga chiqqanidan keyin erting zimmasiga o'tishi yohud otasi yoki eri yo'q ayolning nafaqasi akasi yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa shaxslarga vojib bo'lishi kabi farzlar

Islomda ayol kishi nafaqasiz qolishi mumkin emasligini, qizning nafaqasi otaga, xotinniki erga, singilniki aka-ukaga, onaniki o'g'ilga vojib bo'lishini bildiradi. Bundan tashqari, Islom dinida ayolni e'zozlash, unga nisbatan go'zal muomala qilish, har qanday holatda ham unga ruhiy yo jismoniy ozor bermaslik Muqaddas Qur'onda bir emas, bir necha bor eslatilgan. Imom G'azzoliyning: "Bilinki, ayolning ozor berishdan tiyilish husni xulq emas. Balki, undan yetadigan ozorni ko'tarish husni xulqdir", degan fikrlari ham dinimizda ayolning doimo e'zozlanishidan dalolatdir.

Oxiri yillarda O'zbekistonda ayollar tengligi masalasida 30ga yaqin qonun va boshqa hujjatlar qabul qilindi, bu eng avvalo, oilada va jamiyatning barcha jabhalarida AYOLning manfaatlarini har tomonlama himoyalayotganidan dalolatdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston uchun aholining har tomonlama farovon yashashi bosh maqsaddir. Bu maqsadga erishishda davlat imkon qadar barcha choralarini ko'rmoqda. Bu choralarining samarali natijasi esa ko'proq oilada, jamiyatning barcha jabhalarida o'zaro ahil va "bir-birlariga birodarlik ruhida" yashaydigan insonlarning hamjihatligiga bog'liqdir.

Shohida ESHONBOYOVA,
"Milliy tiklanish" muxbiri

✓ Tarix kitoblarida yozilmagan gaplar ruksidan



KATTA QALB EGASI

Taniqli yozuvchi Mirzakalon Ismoilii bilan Sharof Rashidovning murosasi kelishmaydi deb eshitib yurur edim. Kimdan o'tgan, nimadan boshlangan buyog'idan xabarim yo'q. Elas-elas yodimda qolgani shuki Sharof aka 50-yillarning boshida ma'lum muddat "Qizil O'zbekiston" gazetasida bosh muharrir bo'lib ishlagan. Mirzakalon aka mas'ul kotiblik qilgan. Ularning orasida nima gap bo'lgan bo'lsa o'shanda bo'lgan. Har qalay, xizmat yuzasidan.

O'zbekiston tadbirida eng jabrdiyda kishilardan kimni bilasan desangiz, shu Mirzakalon Ismoilii edi, o'ylashimcha. Uzoq muddat urushda zobit bo'lib xizmat qilgan va Berlingacha fashistlarni ta'qib qilib borgan. Urushdan qaytgach uzoq muddat sho'ro turmalarida siyosiy mahbus bo'lib yotgan. Qo'yingki bir mazlum inson edi. Ammo Mirzakalon iste'dodli adib va zukko murabbiy bo'lishdan tashqari, nihoyatda mohir, tug'ma tarjimon edi. O'z davrida she'riy tarjimada Mirtemir bo'lsa, nasriy tarjimada Mirzakalonning oldiga tushadigan bo'lmagan.

Har ikki adib kamoli kamtarin va kamsuqum bo'lishganidan hayotligi chog'ida ularning o'zbek adabiyoti oldidagi xizmatlari uzoq yillar munosib taqdirlanmasdan keldi.

1980-yil bo'lsa kerak, bir kuni Sharof akaga xat yozib Mirzakalon haqida o'zimcha fikr bildirib, kattakonning e'tiborini unga qaratmoqchi bo'ldim. Ammo men o'yimni o'ylab bo'lguncha...

Bir kuni ne ko'z bilan ko'rayki, gazetaga yozuvchi M.Ismoiliiya O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni berilibdi.

Obbo! Kimdir mendan oldinroq ulguribdi-da deb o'yladim. Oradan biroz o'tib domlani uylariga tabriklashga bordik. Ammo ustozning avzolari buzuq edi.

Ko'rmaysizmi domla, shu yerda ham bizni kalaka qilishdi. Qanaqasiga kamina san'at arbobi bo'layin. Nima men artist yoki otarchimim? – deb qattiq gina qildilar.

Yo'g'e, san'at arbobi bo'lish uchun teatr yoki sirk artisti bo'lish shart emas.

Avvalo, badiiy adabiyot ham so'z san'ati. Mana Izzat Sulton. U kishi ham fan arbobi emasku, garchi akademik bo'lsa ham. San'at arbobi! Kattakonning sizga qilgan e'tibori bu – Mirzakalonn yupataman.

Bu gaplardan keyin Mirzakalon «bekorga xafa bo'libman» deb xijolat chekdi. Unga boqib men hayratlanardim: inson qancha buyuk bo'lsa, shuncha sodda bo'larkan-da.

Sharof aka vafot etgan kuni Ismoiliiya «eski qadrdonlar»dan biri qo'ng'iroq qilib o'zicha «suyunchi» olmoqchi bo'libdi:

– Tabriklayman, Mirza aka, mana raqibingiz Rashidov o'libdi. Endi xursandmisiz?

Mirzakalon uni gaplarini eshitib titrab-qaqshab, tutaqib ketadi.

– Ey badbax, esi past odam. Birovning vafoti bilan ham tabriklaydimi? Esiz. Kim aytuvdi uni meni dushmanim deb! Ajali yetganda hamma o'ladi. Bandalik bu. Bunday paytda xursand bo'lmaydilar, ta'ziya bildiradilar. He, seni qarayu!...

Sharof Rashidovning jasadi solingan tobut vidolashish uchun San'at saroyi sahniga qo'yilgan. Bunday katta motamni ko'rgan emasman. Ko'cha va xiyobonga yer yorilib tumanat odam chiqqan. Shunda ko'rib qoldim, olomon ichida, turtilib-surtilib, Mirzakalon Ismoilii domla ham abgor holda sel bo'lib yig'lab borar edi....

G'aybulloh as-Salom domlaning «Ey umri aziz» kitobidan.
Mansur Kurbanov
Rustamjon Fazliddinov sahifasidan olinadi.

✓ Partiya faoliyatidan

OLMAZORLIKLAR BOSHLAGAN BAYRAM AFRIKADA HAM SADO BERADI



Nihoyat qish bo'yi uyquda bo'lgan dov-daraxt novdalari kurtak chiqarib, quyosh nurlariga talpinyapti, tabiat shu tariqa yashil libos kiyishga shoshilayotir. Navro'z yaqinlashgani sari o'lkamizda bahoriy tadbirlar ham boshlanib ketdi.

Olmaazor tumanidagi 15-maktabda o'tkazilgan «Zulfiyaxonim she'rilarida bahor nafasi» nomli tadbirda deputatlar, «Milliy gvardiya orkestri» jamoasi hamda OAV xodimlari ishtirok etdilar. Maktabda ingliz tilidan

dars berayotgan afrikalik Keven Lubising ayitishicha, u davlatlararo o'qituvchilar o'rtasida malaka oshirish dasturi asosida yurtimizga kelgan. Uning ta'kidlashicha, Afrikada bunday tadbirlar o'tkazilmaydi. «Albatta, vatanimga qaytganimda yurt do'shlarimga O'zbekistonga kelishlarini tavsiya qilaman», deydi Keven hayajon bilan.

Tadbir davomida ijro etilgan kuy-qo'shiqlar, she'rlaru, badiiy chiqishlar yig'ilganlarda katta taassurot

qoldirdi. Yakunda esa tadbirni uyushtirishda faollik ko'rsatgan o'qituvchilar Sharof Otajonova va Olmosxon Abdullayevvalarga «Milliy tiklanish» partiyasi Toshkent shahar Kengashi tomonidan tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.

«Milliy gvardiya orkestri» jamoasi va faol o'quvchilarga ham maktab ma'muriyatining esdalik sovg'alari topshirildi.

Zarina AXMEDOVA,
«Milliy tiklanish» muxbiri

✓ Zarrabin

BIZDA ISHSIZLIK

DARAJASI QANCHAGA KAMAYDI?

O'zAning ayitishicha, 2023-yil yakuniga ko'ra, ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga kamaygan. Bu haqda Kambag'allikni qisqartirish va bandlek vazirligi axborot xizmati ma'lum qildi. Shuningdek, Mehnat bozori tadqiqotlari instituti tomonidan 208 ta shahar va tumanda o'tkazilgan ijtimoiy so'rov davomida 1 000 ta o'zini-o'zi boshqarish organlari, 10 000 uy-xo'jaliklari hamda 53 ming 300 nafar fuqaro qamrab olingan.

Yana bir ko'rsatgich, 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizdagi mehnat resurslari soni 19 million 724 ming 900 kishini tashkil etib, bu 2023-yilning shu davriga nisbatan 207 ming 400 kishiga (1,1 foizga) oshganligini ko'rsatadi.





ЎЙИЛГА КЕЧИККАН

ЖАҒИҒАТ

Илм олиш, изланишлар қилиб янгиликлар яратиш, билимларини эса ёшларга ўргатишни ният қилган минглаб жадидлар қаторида Бадё Абдулла ҳам бор эди.

1909 йили Янги Бухоро туманининг Работ-қилич қишлоғида туғилган Бадё Абдуланинг отаси Бухоро амирининг қоровулбегиси эди. Аслида Бадё тахаллуси билан Абдуланинг отаси Махмуд шёрлар ёган, кейинчалик Абдулла ҳам отасининг тахаллусини қабул қилган.

1917 йилги воқеалар пайтида Бадё Махмуд катл этилади. Бадё Абдулла эса амир томонидан катл этилган «Ёш бухороликлар» партияси аъзолари ёки қизил армия билан жангларда ҳалок бўлганларнинг фарзандлари учун очилган «Авлоди шухадо» мактаб-интернатига ўқишга олинади.

1922 йилда иқтидор ва интизоми билан эътибор қозongan 13 ёшли Бадё «Авлоди шухадо»нинг бир гуруҳ ўқувчилари қатори Германияга ўқишга юборилади. Маълумки, Бухоронинг Германияга юборилган ёшларнинг аксарияти жадидларнинг авлодлари ёки жадид мактаблари ўқувчилари эди. Кетиш арафасида Бухоро Халқ Республикаси (БХР) Маориф ноизи Махзар Бурхонов ёшларга қарата: «...Хукуматимиз сизни Германияга ўқишга йўллайди. Биз ёш қадрларга муҳтожмиз. Ўз Ватанимизни мураккаб идора этмок учун бизга илм ва тажрибали мутахассислар зарур. Сизнинг ишингиз Германияда илм олишдир. Миллатингизга ҳеч бир вақт хийнат этманг» дея маъруза қилади.

Ўқувчилар Германияга етиб борган, Бадё Абдулла шериклари Уёмон Омон, Незмат Назрулла, Аловуддин Исомиддин, Муҳаммаджон ва Раҳматжон Аважоновлар сингари 18 нафар ўқувчилар қаторида Кёслин (Köslin, бугунги Польша таркибидagi Koszalin) шаҳридаги хусусий мактаб-интернатга жойлашадилар. Бадё ниҳоятда қисқа муддатда олмон тилини ўрганиб, 1924 йилда – 15 ёшида Кёслин гимназиясини муваффақиятли тугатади. Бирок ўзи танлаган

Берлин университетига қира олмаган, Берлин яқинидаги Гермсдорф қишлоғида жойлашган масжиддан кўним топади. 1926 йили яна Берлинга қайтади. Аммо иқтисодий етишмовчилик ва совет ҳукуматининг тинимсиз таъқибига сабаб Ватанга қайтишга қарор қилади.

1926 йилнинг 1 июнь куни йўлга чиқиб, ўн кунда Тошкентга етиб келади. 15 июнь куни Самарқандга бориб, отасининг дўсти, Ўзбекистон Маориф халқ комиссарлиги вақф бўлими бошлиғи Абдувоҳид Бурхоновнинг тавсияси билан Самарқанддаги рус мактабига ўқишга қиради.

1929 йилга келиб эса Самарқанддаги Ўзбекистон Давлат университети (ЎзДУ)нинг математика факультетига ўқишга қиради. Талабалик йилларида Сулаймон Амиров, Обид Каримов, Салоҳиддин Очилов, Муҳаммаджон Собиров, (кейинчалик Махмуд Ойқорли номи билан танилган) Баҳром Ибрагимов, ака-ука Ҳамид ва Олим Қодировлар билан дўстлашади. Афсуски, кўп ўтмай бу ёшлар ҳам камокка олинадилар. Тергов пайтида асосий эътибор Фулом Зафарий ва ёш шоир Миртемирларга қаратилиб, Бадё Абдулла мунтазам сўроқлардан сўнг камокдан қўтилиб қолади.

У 1933 йили ўқишни тугатиб, Куйбишев номидаги Ўзбекистон Давлат кишлоқ хўжалиги институтида математикадан дарс бера бошлайди. 1936 йил 8 сентябрь куни доцент вазифасини бажарувчи унвонини олиб, кафедра мудирини лавозимига тайинланади.

Аммо 1937 йилда уни ижтимоий келиб чиқишини яширганликда ва эндиликда нацистлар қўлга ўтган Германиянинг Таргитот вазири Йозеф Геббельс нутқини таржима қилганликда айблаб, ишдан хайлашади. Маълум бўлишича, Бадё Абдулла хали камокка олинмасидан аввал унинг талабалик йилларидаги дўсти – ЎзДУ ассистенти Муҳаммаджон Собиров ИИХК

(Ички ишлар халқ комиссарлиги)га: «Абдулла ўзининг аксилкичилик фаолиятини рад этса, сўроқ вақтида мени чақиринлар. Мен уни фош этман», дея ариза ташлаган экан.

Ноябрь ойига келиб, Ички ишлар халқ комиссарлиги

Охир-оқибат 1938 йилнинг 2–10 январь кунлари ўтказилган сўроқларда холдан тойган Бадё Абдулла болалигидаёқ жосус бўлгани, Германия нацистларининг махфий хизмати бўлиши Гестапога ёллангани ва Карл исми кишига хизмат

дея қарор чиқаради. Бирок бироз ўзига келган Абдулла бу айбловлар босим остида имзолатилгани, барчаси бўхтон эканини айтади, «Учлик» судига олиб чиқилса, ноқонуний ҳаракатлари фош бўлишидан қўрққан терговчилар уни жазолашни ортга сурадилар.

1977 йилда Бадё Абдуланинг кизи Эра Абдуллаевна Туркистон Ҳарбий округи прокуратурасига ариза ёзиб, отасининг иштини қайта кўриб чиқишни сўрайди. Шу асосда олиб борилган тергов жараёнида ниҳоят ҳақиқатлар юзага чиқа бошлайди.

Бу сафарги терговда киприк қокмай, бирга таҳсил олган дўстига тухмат қилган Муҳаммаджон Собировнинг ҳам, Махмуд Мансуровнинг ҳам кўрсатмаси аввалгисидан кескин фарқ қилади. Бу пайтга келиб Самарқанд Давлат университети математика факультети доценти бўлган Муҳаммаджон Собиров шундай дейди: «Мен Абдулладан бир курс катта эдим. Биз бир хонада яшаган дўстлар эдик. Унда бирор бир ёмон жихатни кўрмаганман. У на миллатчи, ё на жосус эмас, аксинча, жуда билимдон математик эди. Мен уни кимнингдир нутқини таржима қилгани учун камалган деб эшитганман. Терговчи 1939 йил 16 апрелдаги юзлаштириш баённомадорини тутказганида, эслолмидим, балки ўқимай қўл қўйган бўлсам керак...»

Мазкур тергов жараёнига жалб қилинган Абдурашид Юсупов ҳам 1939 йил 29 декабрь кунги кўрсатмасида қаттиқ таҳқир ва босим остида бўлгани, бир нечта қозони ўқишга имкон беришмагани, мажбуран имзолаштиганини айтади.

Қайта тафтиш жараёнида ИИХК ходимлари Калмыков, Руденков, Мирхамидов, Казанов исми маъзулар терговни ташкил этиш жараёнида қонунбузилишларига йўл қўйгани аниқланади. Асосий айблов мотиви бўлган «Курт Вилли» ва Ҳамро Абдуллаевларнинг жосуслиги ҳам СССР Давлат Хавфсизлик қўмитаси (КГБ) томонидан инкор этилади. Бадё Абдулла ҳақида тирик бўлган гувоҳлар бу сафар фақат яхши гаплар айтадилар...

1977 йил 21 июль куни Туркистон Ҳарбий округи ҳарбий трибунали Бадё Абдулла иштини қўриб, 1940 йил 19 августдаги «Учлик» суди қарорини бекор қилади. 1977 йил 22 июль кунда Эра Абдуллаевнага хат йўллаб, отасининг вафотидан сўнг оқланганлиги ҳамда унга сталинча қатағон сиёсати қурбонининг кизи сифатида икки ойлик маош миқдорига пул берилишини маълум қилишади...

Кеч бўлса-да, ҳақиқат қарор топади. Тортиб олинган «ота меҳри», кимсасизликка маҳкум қилинган болалик, йўқотилган йилларга жавобан икки ойлик маошга тенг бадал тўланади. Суриштирувлар давомида Бадё Абдулла Самарқандда яшаган уй ҳозирда йўқлиги аниқланган. Отасини фақат тўрт ёшига қадар билган ва унинг оқламини учун қурашган, бесабаб «халқ душманининг кизи» деган номи олган Эра Абдуллаевнанинг кейинги тақдири қандай кечгани ҳам номаълум.



Баҳром ИБРАЕВ, Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи катта илмий ходими, тарихчи олим

МУДДАТ ОХИРИГА ЕТМАЙ, ЯЪНИ 1942 ЙИЛДА 33 Ёшли Бадё Абдуланинг Магадан яқинидаги Оғир қон ишларига ихтисослашган Теньлаг (Теньки лагери)да жазони ўташ чоғида вафот этгани ҳақида маълумот хати келади....

нинг Самарқанд бўлими Бадё Абдулла Махмудовични ЎзССР ЖКнинг 66-моддаси 1-банди, яъни аксилкичилик ташвиқот қилганликда айблаб камокка олади. Шу куннинг ўзида у яшagan Самарқанд шаҳри, Нуробод кўчаси 26 уй, 4 хонадонда тингув ўтказилиб, Бадё Абдуланинг фуқаролик паспорти ва уйдаги барча нарса хатлашиб, олиб кетилади. Турмуш ўртоғининг вафотидан сўнг Бадё билан қолган 4 ёшли қизчаси Эрани эса болалар уйига топширишади.

1937 йил 27 декабрь кунги сўроқда Ўзбекистон давлат университети доценти Алексей Текерев Абдуллага қуйидагича таъриф беради: «Бадё Абдулла 1930 йили Педагогика талабаси бўлган даврдан биламан. 1937 йилда Абдурашид Юсуповнинг тўйида немис тилида «Виновчиси мени родились» («Биз гунохвор бўлиб тутилганмиз») деган қўшиқни жуда чуқур даражада қуйидагича. Маъноси-га ҳеч ким тушунмади, аммо ҳамма жуда гапгин холга тушиб тинглаган эди».

Терговга чақирилган бошқа гувоҳлар ҳам Абдуллага ижобий таъриф бераверганини учун тергов ходимлари энди масалани ўзлари, дахшати азоб бериш йўли билан ҳал этишга киришадилар.

қилгани ҳақидаги баённомага қўл қўйдиришади. Баённомага шунингдек, Германиядан Бухорога қайтган, аввалдан таништирилган Курт Вилли исми шаж билан алоқа ўрнатиб, унга Самарқанддаги ахвол ҳақида ахборот етказиб тургани, 1928 йилдан эса Курт Виллининг ўрнини Германияда ўқиган Ҳамро Абдулла эгаллаб, халқнинг советлардан норозилиги ҳақидаги ёлгон маълумотлар ҳам илова қилинади.

Кийноқлар таъсирида ақлдан озар даражага етган Абдулла «Афзалдан 200 марка, Куртдан 2000, Ҳамродан 10000 сўм миқдорига пул олдим, бу пуларга Олимбек Қодиров, ака-ука Абдурахим ва Абдурашид Бурхоновларни, портлатгич моддалар керак бўлгани учун милициядан Носир Умаров деган кишиларни ёлладим», деб ёзилган сохта иқрономага имзо чекади.

Бадё Абдуллага имзолатилган сўроқ баённомадоридан илҳомланган ЎзССР ИИХК Самарқанд вилоят бошқармаси бошлиғи Сергей Калмыков уни 1925 йилдан «Озод Туркистон» аксилкичилик ташкилоти аъзоси, 1926 йилдан бери Германия фойдасига ишлаган жосус, 1936 йилдан Ҳамро Абдуллаев орқали Гестапога ёлланган жосус

ўша даврда ИИХКнинг ноқонуний хиёблари ва кийноқ усулларидан норози бўлган одамлар Москвага тинимсиз хатлар ёзишарди. Шу жараёнда Марказий ҳукумат айрим терговчиларнинг устидан жиний иш очинишга ҳам мажбур бўлади.

...1939 йил 15 апрель куни Бадё Абдулла ўз ҳамқасби Махмуд Мансуров билан юзлаштирилади. Бу вақтга келиб аллақачон руҳи синдирилган Махмуд терговчининг килиб айтиб беришга, тўйла ҳам дунёга махмур бир немисча қўшиқни қуйлаб берганман. Хўш, шу жиноятми? Қани бу ерда жиноят?!» дея кескин савол беради.

Вазият мушкуллашганда терговчи сиздан терговчилар энди бошқа йўлдан бордилар: бир пайтлар «Абдуллани қоралашга тайёрман» деган Муҳаммаджон Собировни гувоҳликка чақирини. У эса олдиндан ёлдаб олгандек, Абдулла Бадёнинг «жиноятлари»ни санаб, уни русларни ёқтирмаганини «исботлаб» кўрсатма беради.

Чорасиз қолган Бадё Абдулла 1939 йил 2 август куни турмада қўлига тушган варақка қалам билан Самарқанд вилоят прокуратурасига бошидан ўтказганларини баён қилиб: «Шунча вақтдан буён турмада айбсиз ўтирибман», деб шикоят ёзади. Аммо жавоб хати унга етиб келмайди.

Умид узмаган Абдулла 1940 йилда Самарқанд турмасидан туриб СССР НКВД махсус йиғилиши раисига иккинчи аризасини ёзади. Мана ўша хатдан парча: «15 кун давомида уйку бермай, мени тик оёқда турғазиб таҳқирлашди. Ақлдан озмиш даражасига борганимда, бир қатор қозғоларни имзолатишди. Мен ҳеч қачон жосус бўлмаганман! Ҳамро ўз иши билан, мен ўзимнинг ишим билан эдик, биз деярли 12 йилдирки учрашганимиз йўқ. Мен ўшанда унга тухматлар ёзилган қозғоларни имзолаганман! Ҳозир юзлаштиришларини талаб қилсам, улар рад этишмоқда».


У ёлган аризаларида ҳам, терговда ҳам беғуноҳлигини исботлашга қанча уринмасин, 1940 йил 19 август куни СССР ИИХК махсус йиғилиши уни жосуслик фаолияти учун 8 йил Меҳнат тузатиш лагерида жазо ўташга ҳукм қилади. Афсуски, муддат охирига етмай, яъни 1942 йилда 33 ёшли Бадё Абдулла Магадан яқинидаги оғир қон ишларига ихтисослашган Теньлаг (Теньки лагери)да жазони ўташ чоғида вафот этгани ҳақида маълумот хати келади.

✓ Партия бонг уради

НАТИЖА БЎЛМАСА, БУ МАСАЛА ПАРЛАМЕНТ ДАРАЖАСИГА КЎТАРИЛАДИ

Қашқадарёда 1468 та маданий мерос объекти бўлиб, айнан ана шу иншоотлар туфайли ҳам вилоятда туризм изчил ривожланипти. Бирок кўҳна тарихимизнинг ажралмас бўлаги ва тилсиз гувоҳи бўлган осори-атикаларнинг аксарияти таъмирталаб ҳолатга келиб қолганки, айримлари ҳатто йўқолиб кетиб даражасига тушиб қолган. Қарши шаҳридаги Харамжўй, Қулол, Чакар масжидлари ҳамда Шарифбой мадрасалари шулар жумласидандир. Таъқидлаш лозим, ушбу маданий мерос объектлари қатта тарихий қийматга эга. Жумладан, Харамжўй масжиди беш асрлик тарихга эга бўлса, Қулол, Чакар масжидлари ва Шарифбой мадрасаси XVIII асрда бунёд этилган. «Миллий тикланиш» демократик партияси Қашқадарё вилоятчи Кегаши депутатлик гуруҳи томонидан ушбу масала бир неча бор ўрганилиб, мавжуд муаммо ҳақида бонг урилиб, сессиялар кун тартибига киритилган бўлса-да, маъсул идоралар ҳамон бефарқлик қилмоқдалар. Тўғри, Харамжўй 2021 йили, Қулол масжиди ҳамда Шарифбой мадрасаси эса 2022 йилги дастурга киритилгани тўғрисида маълум қилиниб, бу ҳабар ОАВда ҳам эълон қилинган эди. Лекин афсуски, мутасаддиларнинг муаммога муносабати қозғолардагина сакланиб қолди, ҳоло. Депутатлик гуруҳи куни кеча ана бир бор ушбу тарихий объектлар ҳолатини кўздан кечириб, шонилич чора кўриш лозим деган қарорга келди. Аке холда келажак авлодларга қоладиган беқиёс бойликнинг буткул йўқолиб кетиш хавфи бор. Шундан келиб чиқиб, партия депутатлик гуруҳи маъсул ташкилотларга депутатлик сўрови юборишга қарор қилди. Депутатлар шунингдек, бу сафар ҳам натижа бўлмаса, бу масалани парламент даражасига кўтариш лозим деган фикрдалар.

Партиянинг Қашқадарё вилоятчи Кегаши ахборот хизмати





Омон
МАТЖОН

АЁЛГА МАҚТОВ

Шоирга йўл бўлсин, сизни чизай деб,
бўёқ куюлтириб турар рассомлар!
Мукаммал хуснингиз ёғдуси учун
ой ҳам навбатчилик қилар оқшомлар!

Шоирга йўл бўлсин!
Куйлай деб сизни,
бастакорлар юрар ёқа чок, тажанг:
торни темирчига топширворгудек,
ҳар жаранг устида қилиб неча жанг.

Эъзозингиз буюк!
Саркарда Бобур,
жувонмард руҳлари бўлғай зиёда,
қўшинда биргина от қолса, шунга
сизни ўтқазгандир,
қолиб пиёда...

Шоирга йўл бўлсин!
Сиздаги талъат,
нозиклик кимларни ўйга солмаган?!
Оққуш, сувдан чиқмай, таранвериб,
бежиз бир оёқда ухлаб қолмаган!

Сиздай ясанмоқни истаб, қиш битмай,
Изҳорга лаб жуфтлаб ҳар бир куртаги,
ўриклар чиқдилар — бир тонг тўла гул,
Нур кийди жаъмики боғлар юрдаги.

Шоирга йўл бўлсин, кечикди шоир
бу инжа рақобат, нурли таловга:
Ҳа бизга ҳеч юмуш қолмабди энди
Сизни жуда қаттиқ севишдан бошқа!



Муҳаммад
ЮСУФ

ҚИЗЛАР ҚЎШИҒИ

Қиз йўқ уйда сарин сабо эсмайди,
Қиз йўқ уйда жамбил-райҳон ўсмайди.
Ўғилларнинг ота билан иши йўқ,
Қиз отасин ҳар қадамда эслайди.
Қўзларига суртай юрган изингиз,
Қай ўғилдан камдир, айтинг қизингиз?..

Қиз йўқ уйда тонглар эрта отмайди,
Тонда офтоб, айвонда ой ётмайди.
Ўғил қандай дўст бўлади, билмадим,
Қиз дўст бўлса — сирингизни сотмайди.
Оғир кунда жавдиратмас қўзингиз,
Қай ўғилдан камдир, айтинг қизингиз?..

Умр дарё, толега ким кафилдир,
Қизнинг борар жойи бўлак соҳилдир.
Қиз дардига етмаганлар гофилдир,
Қиз бор уйда ёруғ бўлар юзингиз,
Қай ўғилдан камдир, айтинг қизингиз?..

Дунё кўрки — шу қўзлари шаҳлолар,
Қизлар билан чаманзордир саҳролар.
Бир қайрилиб Қайси Мажнун айлаган,
Тоҳирларни Тоҳир қилган — Зухролар.
Қиз туйфайли бутдир ризқу рўзингиз,
Қай ўғилдан камдир, айтинг қизингиз?..

Айтинг кимнинг паймонаси тўлмаган,
Қиз бор — ота ёт бағирда ўлмаган.
Ўғлим йўқ деб ўкинганлар — ёмонлар,
Батъи одамларда ўғил бўлмаган!
Билиб айтинг айтганда ҳар сўзингиз,
Қай ўғилдан камдир, айтинг қизингиз?!



Иқбол
МИРЗО

ОНАЖОН

Гоҳо сизнинг борлигингиз унутдим,
Йўлларимга зорлигингиз унутдим.
Умидлари кесилган бу дунёда
Ёлғиз умидворлигингиз унутдим.
Ғаниматим, омонатим — онажон.

Ошно топдим ва лекин дўст топмадим,
Оққўнғилли бир қорақўз топмадим.
Шамолларга соғурдим гул сўзларни,
Лекин Сизга бир ширин сўз топмадим.
Ғаниматим, омонатим — онажон.

Батъан фалак менга бағритош келди,
Ишонганим ғанимга йўлдош келди.
Омад кетса, ҳамма қулди устимдан,
Фақат Сизнинг қўзингизга ёши келди.
Ғаниматим, омонатим — онажон.

Фурсат ўтиб, сонга қиров қўнаркан,
Севги оташлари аста сўнаркан.
Барча туйғу алдамчи ва ўткинчи,
Она меҳри ёлғиз собит қоларкан.
Ғаниматим, омонатим — онажон.

Хоки пойингизни қўзимга сурай,
Ўзим ярим кўнглингни тўлдирай.
Бир чеккага суриб қўйиб дунёни,
Ўғил бўлиб ёнингизда ўлтирай.
Ғаниматим, омонатим — онажон.

ДИҚҚАТ! ТАНЛОВ!

«МИЛЛИЙ ТИҚЛАНИШ» ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ГАЗЕТАСИ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОҚ
БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ УРТАСИДА

«ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»

МАВЗУСИДА ИНШОЛАР ТАНЛОВИНИ ЎТҚАЗАДИ.

Ғолиб

20 МИЛЛИОН

сўм пул мукофоти билан тақдирланади.

**ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҚАМДА
ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА**

**2024 йилнинг сентябрь ойида –
Ўқитувчи ва мураббийлар
байрами арафасида
топширилади.**

Мурожаат учун: **(90) 245-18-10**

ШУННГ ДЕК. ТАНЛОВДА 30 НАФАР ҚЎШИМЧА НОМИНАЦИЯЛАР
БЎЙИЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНАДИ

«МИЛЛИЙ
ТИҚЛАНИШ»
ДЕМОКРАТИК
ПАРТИЯСИНИНГ
ИЖТИМОЙ-
СИЁСИЙ
ГАЗЕТАСИ

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abror PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Ilhom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJONOVA,
Minhojiddin MIRZO,
Nuriyman ABULXASAN,

Odiljon TOJIYEV,
Olim O'SAROV,
Otabek JIYANBOYEV,
Ozodbek NAZARBEKOV,
Ortiqali QOZOQOV,
To'lqin TESHABOYEV,
Feruz MUHAMMEDJANOVA,
Xurshid DO'STMUHAMMAD,
Sherzodxon QUDRATXO'JA,
Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

**TAHRIRIYAT
MANZILI:**

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxzoda
ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai
nazaridan farq qilishi
mumkin.

Gazetada Internet
ma'lumotlari
va suratlaridan
foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy
e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga
qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'afur OMONBOYEV,
Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruz XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Korxonaning manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 036.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 321
Bosishga topshirish vaqti 1:45.
Topshirildi 00:30

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456